

## AVESTO: YAKKAXUDOLIKDAN KO'PXUDOLIK SARI

Sa'dullayev Shohjahon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

[shohjahon\\_sadullayev@yahoo.com](mailto:shohjahon_sadullayev@yahoo.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqola zardushtiylikning asosiy manbasi – Avesto tahliliga qaratilgan bo'lib, Ko'hna Avesto matnlari bilan Yangi Avesto matnlari qiyoslangan. Ko'hna Avesto (gohlar) matnlaridagi diniy qarashlar tahlil qilinib, undagi yakka xudolik tamoyilining vaqt o'tishi bilan qayta tiklangan Yangi Avesto matnlaridagi ko'pxudolik tamoyiliga o'zgarganligi, politeizm unsurlarining mustahkamlanganligi ko'rsatib beriladi. Ahura Mazda markaziy iloh sifatida tasvirlansa-da, mitraizm va alohida atributlarga sig'inish hamda boshqa e'tiqod shakllarining zardushtiylikka ta'sir qilgani yoritiladi. Shuningdek, bu jarayonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sabablariga ham e'tibor qaratiladi. Maqola Avestoning tarixiy rivojlanishini tushunishga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** Zardushti, zardushtiylik, Mazda Yasna, gohlar, emanatsiya, atribut, moniylik, xristianlik, vedalar.

### ABSTRACT

*This article focuses on the analysis of the Avestan texts, which are the primary source of Zoroastrianism. The study compares the Old Avestan texts with the Young Avestan texts. The religious views in the Old Avestan (Gathic) texts are analyzed, showing how the monotheistic principle present in these texts gradually transformed into the polytheistic elements found in the Young Avestan texts over time. The strengthening of polytheistic elements is highlighted. Although Ahura Mazda is depicted as the central deity, the influence of Mithraism, the worship of specific attributes, and other forms of belief on Zoroastrianism are discussed. Additionally, the social, political, and cultural causes behind this process are also considered. This article contributes to understanding the historical development of the Avesta.*

**Keywords:** Zoroaster, Zoroastrianism, Mazda Yasna, Gathas, emanation, attribute, Manichaeism, Christianity, Vedas.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье проводится анализ авестийских текстов, которые являются основным источником зороастризма. Исследование сравнивает раннеавестийские тексты с позднеавестийскими текстами. Анализируются религиозные взгляды в раннеавестийских (гатических) текстах, показывая, как монотеистический принцип, присутствующий в этих текстах, со временем*

трансформировался в политеистические элементы, которые встречаются в позднеавестийских текстах. Подчеркивается усиление политеистических элементов. Несмотря на то, что Ахура Мазда изображен как центральное божество, рассматривается влияние митраизма, поклонение отдельным атрибутам и другие формы верований на зороастризм. Кроме того, внимание уделяется социальным, политическим и культурным причинам этого процесса. Статья способствует лучшему пониманию исторического развития Авесты.

**Ключевые слова:** Зороастр, зороастризм, Мазда Ясна, гаты, эманация, атрибут, манихейство, христианство, веды.

## KIRISH

Zardushtiylik dini o‘zining ilk bosqichlarida yakkaxudolik e’tiqodini ilgari surgan bo‘lsa-da, “Avesto” matnlarida ko‘pxudolik unsurlarining mavjudligi va ularning vaqt o‘tishi bilan ta’siri ko‘rinadi. Ushbu tadqiqotning asosiy masalasi “Avesto”da yakkaxudolikdan ko‘pxudolikka o‘tish jarayonining sabablarini, uning dinshunoslik nuqtai nazaridan qanday shakllanganini va bu o‘zgarishlarning diniy qarashlar rivojiga ta’sirini aniqlashdir. Maqola, bu masalalarni yoritish orqali zardushtiylikning diniy tizimidagi muhim o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, yakkaxudolik va ko‘pxudolik tushunchalari o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish, bu jarayonlarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / LITERARY ANALYSIS AND METHOD)

Avestoning o‘rganilishiga bag‘ishlangan adabiyotlar asosan ikkita asosiy yo‘nalishda rivojlangan: tarixiy-arxeologik va lingvistik-tektstual yondashuvlar. Beruniyning zardushtiylik va Avesto haqidagi asarlari, uning Avesto matnlarining qoramol terisiga bitilgan variantlari va Aleksandr tomonidan ibodatxonalar va diniy matnlarning yo‘q qilinishi haqida taqdim etgan ma’lumotlari o‘rganilgan. Boyce (1984) va Is’hoqov (2022) kabi olimlar Avestoning semantik va lingvistik asoslarini tahlil qilishda asosiy o‘rinda turadi. Shuningdek, Kreynbroek (2022) va Skjaervø (2011) kabi tadqiqotchilar yangi va ko‘hna avesta tillarining farqlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologik jihatdan maqolada lingvistik tahlil va diniy-tafsiriy metodlar birgalikda qo‘llanilgan. Dastlabki adabiyotlar, masalan, Beruniy va Boyce kabi olimlarning asarlari asosida Avestoning matnlarining tarixiy va ma’naviy kontekstini o‘rganish uchun tarixiy-metodologik yondashuv ishlatilgan. Bu yondashuv Avesto

matnlarining yozilishi, ularning qayta tahrirlanishi va yangi ma’bdurlarning kiritilishi jarayonini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Lingvistik tahlil esa, asosan, Avesto tilining ko‘hna va yangi dialektlaridagi farqlarni aniqlash va ularning o‘zaro aloqasini ko‘rsatishga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqotda konseptual tahlil ham muhim rol o‘ynaydi, chunki gohlar va Avestoning boshqa qismlaridagi teologik farqlar, ya’ni monoteistik g‘oyalar va ko‘pxudolik konsepsiyalarining o‘zaro kurashi aniqlanadi. Is’hoqov (2022) tomonidan olib borilgan g‘oyalar tahlili zardushtiylikning tarixiy davrlardagi o‘zgarishlarini tushunishda muhim manba bo‘lib, Avesto matnlarining diniy va siyosiy tafsiri jarayonlarini yoritadi.

### MUHOKAMA

“Avesto” – bu zardushtiylik dinining asosini tashkil qiladigan manbalar to‘plamining umumiyligi nomidir. “Avesto” tarkibidagi har bir kitob “nask” deb ataladi. Beruniyning ma’lumotiga ko‘ra “Avesto” jami 30 nask bo‘lgan, makedoniyalik Aleksandr Fors saltanatini (Ahamniylar imperiyasi) bosib olganidan so‘ng uning hududidagi barcha zardushtiylik ibodatxonalarini vayron etishga va “Avesto” nusxalarini yo‘q qilishga buyruq bergan. [Beruniy, 2020, 224] Beruniy, shuningdek, so‘ngi ahamoni hukmdor Doro III (mil.avv.380-330) xazinasida “Avesto”ning 12 ming qoramol terisiga oltin harflar bilan bitilgan nusxasi saqlanganligi haqida ham ma’lumot berib o‘tadi. [Beruniy, 2020, 224]

“Avesto” atamasining kelib chiqishi hamon bahsligicha qolmoqda va uning lug‘aviy ma’nosini ham noaniq. Bu so‘z ilk marta pahlaviy bitiklarida “abestāg” shaklida uchraydi. Olimlar bu terminni turlicha talqin qilgan. Talqinlarning aksariyati K.Bartolomeyning ma’lumotiga borib taqaladi va u rekonstruksiya qilingan \*upa-stavaka, ya’ni “maqtov qo‘srig‘i” so‘zidan kelib chiqqani ilgari suriladi. Ammo tadqiqotlarimiz natijasi o‘laroq, bu so‘z o‘rtalari eroniy tillaridagi pwst’k(a) (pustak), ya’ni “kitob” yoki “hujjat” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu so‘z asosan sharqiy eroniy tillarga xos bo‘lib, pwst (pōst) – “po‘st, teri” so‘zi asosida shakllangan. Bu so‘z keyinchalik derivatsion bosqichlardan o‘tib, parfiyoniy tilida pwstag (pōstag) shaklida “pergament, kitob” ma’nosida [Boyce WL, b.75], so‘g‘d tilida pwstk, pwst’k (pūstak, pūstāk) shaklida “kitob, xat, hujjat, parchment” ma’nolarida [Gharib, b.331] va baxtar tilida πωσταγο (pustag) ko‘rinishida “kitob, hujjat, shartnoma” ma’nolarida [N.S.Williams, b.258] uchraydi. Hatto sanskrit tilidagi ham “kitob” ma’nosidagi *pustaka* so‘zi ham sharqiy eroniy tillardan o‘zlashgan bo‘lishi mumkin, degan qarash ham mavjud. [Sa’dullayev, 2021, b.911] Bu jarayon qadimgi va o‘rtalari eroniy tilli xalqlarda yozuv uchun qo‘llanilgan asosiy

ashyo hayvon terisi bo‘lganligini ham ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan “Avesto” so‘zi pwstg yoki pwst’k so‘zining fleksiyaga uchragan shakli bo‘lishi mumkin.

“Avesto” yozilgan til olimlar tomonidan shartli ravishda *avesta tili* deb nomlangan. Avesta tili lingvistik, adabiy va konseptual xususiyatlarga ko‘ra ko‘hna va yangi avesta tili deb farqlanuvchi dialektlarga ega bo‘lib, ko‘hna avesta tili yangi avesta tilidan bir necha asrlar oldin paydo bo‘lgan [Hintze, 2015, b.38] “Avesto”ning Yasna naskida 17 ta *goh* (*gatha*) mavjud bo‘lib, ular bayon etilgan til “Avesto”ning boshqa qismlari yoritilgan tildan farq qiladi. Avestoshunoslikda ushbu gohlar “Zardusht qo‘shiqlari” deb ham yuritiladi, chunki ularning barchasi kontekstual va konseptual jihatdan Zardusht tilidan aytilganligi ma’lum. Gatha so‘zi avesta tilida “qo‘shiq”, “tilovat” ma’nosini anglatadi va hozirgi hind-oriy tillarida ham geit shaklida “qo‘shiq” ma’nosini saqlagan holda iste’molda mavjud. O‘zbek va tojik milliy qo‘shiq-musiqa tizimi – shoshmaqom tarkibida ham “dugoh”, “segoh”, “chorgoh” singari ashulachilik terminlari mavjud va sharqshunos olim Mirsodiq Is’hoqov gatha atamasini o‘zbek tiliga goh shaklida tarjima qilgan [Is’hoqov, 2022, 12].

Gohlar tili – ko‘hna avesta tili sharqshunos O.Shervyoga ko‘ra mil.avv. II mingyillikning oxirlarida shakllangan bo‘lishi mumkin. Yangi avesta tili esa, ehtimol, zardushtiylik ahamoniy podsholar diniga aylangan davrda shakllangan [Skjaervø, 2011, b.59]. Ko‘hna va yangi avestaning til xususiyatlari eroniy tillarning “o‘rtal eroniy” bosqichiga o‘tishidan ancha oldin shakllanganini ko‘rsatadi [Kreynbroek, 2022, b.202].

E’tiborli jihat shundaki, gohlar va Avestoning boshqa matnlari o‘rtasida teologik jihatdan muhim farqlar mavjud. Gohlarda asosan yakkaxudolik konsepti yetakchilik qiladi. Masalan, Yasna kitobining 28-bobi (hoitiysining) – “Ahunavad goh”ning 1-gohi I, II, III, IV bandlarida Zardusht sig‘inish obyekti sifatida Ahura Mazdani ko‘rsatadi, uning tengsiz kuch-u qudratiga imon keltiradi, uning barcha amallarni ko‘rib turishiga guvohlik beradi.

4-gohda (Yasna, 31) esa Zardusht tilidan Ahura Mazdaning azal-u oxir ekanligi, uning borliqning yaratuvchisi, hakami va xaloskor ekanligi zikr etilgan. Shuningdek, uning inson hayoti mazmuni ekanligi, Ezgu fikrning otasi ekanligi tarannum etilgan:

“Ayo, Mazda! Qalb qo‘rimdan dedim seni, sensan ibtido,

Sen erursan intiho ham, tiriklikning asl mazmuni.

EZGU FIKR (Vahu Mana) otasi sen, HAQ BORLIQ (Haurvatat)ning hakami sen,

Yuragimdan sezdim buni – Sen olamning xaloskor!” (Yasna, 31.8)  
(M.Is’hoqov tarjimasi)

Zardusht aftidan zardushtiylikda keyinchalik rivojlangan quyoshga sig‘inish – mitraizmni qoralagan va yakkaxudolikka chorlagan. Bu 5-gohning 10-bandida (Yasna, 32.10) yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu gohda Zardusht o‘zi yashab turgan zamon va makondagi diniy holatni, ruhoniylarning kishilarni quyosh va qoramol kultiga sig‘inishga undayotgani, Haq yo‘lini yolg‘onga yo‘yayotgani haqida aytib o‘tadi.

6-gohda (Yasna, 33) Ispandarmat (Spenta Armaiti) - KOMIL AQL, Asha (Arta) – HAQIQAT, Shahriyor (Hshatra Varya) – ODIL QUDRAT, Bahman (Vohu Mana) – EZGU FIKR kabi konseptlar tilga olinadi va ular farishta siymosida Ahura Mazdaning “faoliyat” atributi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, gohlarda Ahura Mazdaning bulardan tashqari Hurdod (Haurvatat) – YAGONA VA BARQAROR BORLIQ, Murdod (Ameretat) – ABADIY BARHAYOTLIK atributlari ham tilga olinadi. M.Is’hoqov gohlar ustida olib borgan tadqiqotlaridan kelib chiqib, ularning mavjudligi tufayli Ahura Mazda ezgulik dunyosining barcha soha va jabhalarini bekam-u ko‘st qamrab oladi, yovuzlikning barcha kirdikorlarini daf qiladi, bir so‘z bilan aytganda ular Ahura Mazdaning emanasiyalaridir, degan xulosaga kelgan. [Is’hoqov, 2022, b.126]

Yasna naskining 43- va 44-boblarida Zardusht qilinajak ezgu amallar uchun o‘limdan keyin Ahura Mazda tomonidan va’da qilingan ajr va *Behišt* haqida eslatib o‘tadi. Ushbu boblarda ikki teologik konsept ahamiyatga molik. Ular – Behišt (Vahišta Ahu) va Chinvot ko‘prigi (Cinvāt peruta) konseptlaridir. Gohlarda Behišt “Haqiqat (Asha) yo‘lida sobit bo‘lib” dunyodan o‘tgan zotlar uchun mangu maskan bo‘lib, u yerda hech bir azob-uqubat, qiyinchilik va tashvishlar bo‘lmasligi ta’kidlangan. Chinvot esa o‘limdan keyin Behishtga olib boradigan ko‘prikdir. Yasna naskining 46-bobidagi gohning 10-bandida ta’kidlanishicha, xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol bo‘lsin, Ahura Mazdaga itoat bilan ezgulik yo‘lini tutsa, unga iymon keltirsa, u uchun Chinvot ko‘prigining keng bo‘ladi (ya’ni o‘tish uchun oson bo‘ladi) va Zardusht “Men ham unga hamrohman” tarzida bunga o‘zining kafil bo‘lishini uqtiradi.

Parfiya podsholigi davrida ba’zi qismlari yig‘ila boshlanib, Sosoniylar hukmronligining oltin davrida – III-VI asrlar oralig‘ida qayta tiklangan Avesto matnlari teologik nuqtai nazardan o‘zaro zid g‘oyalarga ega. Bu ayniqsa, Ko‘hna va yangi avesto matnlaridagi dualistik munosabatlarda o‘z aksini topadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar zardushtiylik dini boshdan oxir dualizm asosida barpo bo‘lganini takidlaydilar. Bu – ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi to‘xtovsiz kurash g‘oyasi edi. Gohlarda Ahura Mazdaning borliqning yaratuvchisi ekanligi bir qancha o‘rinlarda ta’kidlanib, borliqdagi, tafakkurdagi barcha narsalarning yaratilishi bevosita unga

taqalishi g‘oyasi asosiy mavzuni kasb etadi. Shunday ekan, Ezgulikning ham, Yovuzlikning ham yaratilishi insoniyatni va uning iymonini sinash maqsadida Ahura Mazda tomonidan in’om etilgan taqdir sifatida tushunish mumkin. Ya’ni Buyuk yaratuvchi barcha yaxshi va yomon konseptlarni o‘zi yaratadi va kishilarni o‘z erkin tanlovlariiga asosan ularni “mukofotlaydi”. Bu nafaqat Mazda yasna (ilk zardushtiylik dinida, balki boshqa dunyo dinlarida ham o‘z aksini topgan.

Avestoning gohlardan boshqa qismlarida (ya’ni yangi avesta tili matnlarida) esa Ahura Mazda va Ahriman o‘rtasidagi azaliy kurash manzarasi aks etadi. Bu esa borliq va tafakkur nisbatan teng kuchli ikki teologik obyektning gegemonlikka intilishi bilan muvozatlanadi, demakdir. Bu esa gohlarda ilgari surilgan yakkaxudolik konsepsiyasiga zid keluvchi konsept o‘laroq yuzaga chiqadi va zardushtiylikning monoteizmiga jiddiy zarba beradi. Zardushtiylik teologiyasidagi eng oliy maqom bunday ko‘rinishda ikki qutbga asoslanar ekan, mantiqan bu ikki qutbni yaratgan Oliy zotga ham ehtiyoj tug‘iladi. Avesto qayta tiklanganda bu masalaga ham javob topishga urinish bo‘lgan. Natijada, endilikda *mubadlar* (zardushtiylik kohini) tomonidan Ahura Mazda ham, Ahriman ham zardushtiylik tasavvuridagi borliqning eng barqaror konsepti – vaqt ma’budi Zurvandan kelib chiqqan, degan xulosaga kelingan. Bu nazariya qadimgi Yunonistondagi Olimp xudolari bilan bog‘liq mifologiyaga asoslanadi. Ushbu mifologiyada borliqning uch asosiy ustun-ilohlari – Zevs, Poseydon va Aid ularni yaratgan vaqt ma’budi Xronosni mag‘lub etib, Olimp uzra hukmronlikka erishgan.

Avestoning qayta tiklangan qismlari zardushtiylikda ko‘pxudolikni mustahkamladi. Amesh Spentalar (gohlarga ko‘ra, Ahura Mazdaning emanatsiyalari) endilikda alohida sig‘inish obyektlariga, ya’ni mustaqil xudolar darjasiga ko‘tarildi. Ularga qo‘srimcha ravishda gohlarda Zardusht nazaridan chekkada qolgan, qadimgi oriyarning (hind-eron qabilalarining) xudolari bo‘lgan Mitra, Anaxita, Apam Napat, Tishtriya, Ardvi Sura obrazlari ham Yangi Avesto matnlarida, ayniqsa, bizgacha 22 bobi yetib kelgan Yasht kitobida mustaqil va Ahura Mazda bilan deyarli tenglashtirilgan ma’budlar sifatida gavdalanadi. Bir so‘z bilan aytganda, Yashtlar naski Zardushtdan keyin zardushtiylik doirasiga ibridoiy mifologik diniy tasavvurlar, kultlar qayta olib kirilgan davr mahsulidir [Is’hoqov, 2022, b.10].

Avestoshunos-so‘g‘dshunos olim Mirsodiq Is’hoqovning fikricha, yakkaxudolik g‘oyasiga zid bo‘lgan ushbu holatni murosaga keltirish uchun mazkur ma’bud va ma’budalarni ham Ahura Mazda yaratgan deya, yakkaxudolik da’vosini olg‘a sura turib, ko‘pxudolikni ham “ilohiy rozilik” ostida ko‘rsatishga urinib, teodeistik yechimga kelingan.

Bu hodisaning zaminida bir jihat borki, bu ham bo'lsa, zardushtiylikda ilohiy zotning yagonaligi g'oyasi u zotga turli ma'bud va ma'budalarning sherik qilinishi orqali qo'pol ravishda buzilgan [Is'hoqov, 2022, b.10-11].

Xo'sh, yakkaxudolikka asoslangan zardushtiylikda qaysi zarurat tufayli ko'pxudolik an'analar paydo bo'ldi?

Bu savolga, avvalo, Avestoning o'zidan, xususan, gohlardan javob izlaymiz. Ayrim gohlarda, ayniqsa, Yasna kitobining 46-haitiysida Zardushtning Mazda Yasna dinini targ'ib qilishda, yoyishda tortgan uqubatlari, undan o'z oila a'zolari, urug'doshlari va qabiladoshlarining yuz o'girgani haqida real hayotiy voqealar yoritilgan. Shuning uchun ham sharqshunos I.M.Steblin-Kamenskiy ushbu gohni "Haydalish qo'shig'i" deb nomlagan [Steblin-Kamenskiy, 2009, b.156].

Bundan ma'lum bo'ladiki, Zardusht yashab turgan jamiyat o'zlarining ko'pxudolikka asoslangan an'anaviy dinlarida konservativ tarzda sobit qolishga, Zardusht ilgari surayotgan monoteistik Mazda Yasna dinini qabul qilmaslikka uringan. Shuning uchun Zardusht ushbu jamiyatning hukmron elitalaridan xayrixoh subyektlarni izlagan.

Ko'pxudolikka asoslangan zardushtiylik, ehtimol, Sosoniylar imperiyasining qaror topishi bilan mustahkamlangan. Bu davrda, ayniqsa, Baqtriyada Mitra kultining taraqqiyoti kuzatiladi. Kushon-sosoniy hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalarda Mitra tasviri ko'p uchraydi. Bu Mitaning kushon-sosoniy hukmdorlarning homiy xudosiga aylanganini ko'rsatadi [Dani, 1996, b.109].

Sharqshunos Grishman ko'pxudolikka asoslangan zardushtiylik taraqqiyotini "imperial din" tushunchasiga bog'laydi. Uning fikricha, "imperial din" zarurati sosoniylar hukmdori Shopur I davrida yuzaga kelgan. U "Rim bilan kurashish uchun barcha milliy imkoniyatlarni safarbar qilishi kerak edi" [Ghrishman, 1954, b.309] va u o'z hokimiyati va saltanat jamiyatini "umummilliylar din" bilan mustahkamlashga intilgan. Shu tufayli uning "Moniy ta'limotlariga ko'rsatgan xayrixohligi bejiz emas edi" [Ghrishman, 1954, b.310]. Ehtimol, Moniyning universal dinni targ'ib qilish sababi ham aynan shu zamondagi Eron elitasining "buyurtmasi" bo'lgan. Chunki u o'z ta'limotini Bobil va Eron kultlari, shuningdek, buddaviylik va xristianlik asosida yaratgan edi.

Grishmanga ko'ra, Sharqda buddaviylik [Kushonlar davriga kelib] o'z taraqqiyoti cho'qqisiga chiqib, keng ko'lamda yoyilmoqda edi. G'arbda esa xristianlik jamolari va ibodatxonalari hatto Shimoliy Mesopamiyada paydo bo'layotgan, Bobil hududida yahudiylik keskin ravishda faollashayotgan edi. Bu esa Fors yurtida "siqilib qolgan" zardushtiylikning har qanday usul va vositalar bilan o'z maqomini mustahkamlashga hamda o'zining yangi raqibi – moniylik ta'limotiga

qarshi kurashish uchun kuchliroq manbaga bo‘lgan zarurat paydo bo‘lgan [Ghrishman, 1954, b.310]. Bu esa zardushtiy jamoalar oldiga og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan Avesto matnlarini tezroq umumlashtirib, yagona manba sifatida barcha zardushtiy jamolariga tarqatish vazifasini ko‘ndalang qo‘ygan.

Natijada, Avesto eroniy xalqlar uchun universal va milliy diniy manba sifatida “qayta tiklandi”. Avesto orqali ta’limotini mustahkamagan zardushtiylik moniylikni Eron hududidan quvib chiqishga va xristianlikni Frot daryosi havzasida, buddaviylikni esa Hilmond havzasida to‘xtatib, Eron hududiga kirgizmaslikka muvaffaq bo‘ldi [Dani, 1996, b.109].

Zardushtiylikning islom bilan to‘qnashuvi xususida M.Is’hoqov shunday xulosani ilgari suradi:

“Allohnning yagonaligi konseptining barqarorligi muqobilida zardushtiylikning yakka xudo g‘oyasi dualistik qarashlar, ko‘plab ma’bud va ma’budalarga sig‘inish tarzida shirk bilan qorishib ketgani bu dinni tarixiy jarayonlarda islom dini oldida ojiz qoldirgan va islom dinining ustuvorligini ta’milagan” [Is’hoqov, 2022, p. 10-11].

## **NATIJALAR**

Maqolada zardushtiylikning monoteistik asosdan ko‘pxudolik yo‘nalishiga o‘tishining Avesto matnlari orqali qanday shakllanganligi va tarixiy jarayonlari yoritildi. Avesto, dastlab, Zardushtning yagona xudo – Ahura Mazda g‘oyasini ifodalarydigan diniy manba bo‘lgan, lekin keyinchalik siyosiy va diniy sabablar natijasida ko‘pxudolik elementlari matnlarning qayta tahrirlanishi va yangi nasklarning qo‘shilishi bilan tizimga kirgan.

Avestaning yakkaxudolikdan ko‘pxudolikka o‘tish jarayoni, ayniqsa, Ahamniylar imperiyasining qulashidan keyin Makedoniyalik Aleksandr tomonidan ibodatxonalar va diniy manbalarni yo‘q qilish siyosatining ta’siri ostida tezlashdi. Bu jarayon Sosoniylar davrida, asosan, Baqtriya va Parfiya hududlarida mustahkamlanib, zardushtiylikni imperianing milliy dini sifatida mustahkamlashga yordam berdi. Shuningdek, Avesto matnlaridagi dualistik g‘oyalar va ko‘pxudolik kontseptsiyalari, zardushtiylikning boshqa diniy oqimlar bilan raqobatlashishga intilishining bir qismi sifatida shakllandı.

Zardushtiylikning ko‘pxudolikka o‘tishi, ayniqsa, Yashtlar va yangi avesta matnlarida ko‘rsatilgan Mitra, Anahita va boshqa ma’bularning mustaqil sig‘inish obyektlari sifatida tasvirlanishi bilan aniq ifodalanadi. Bu holat, zardushtiylikda diniy teologyaning rivojlanishi va Avestoning qayta tiklanishi davrida yuzaga kelgan murakkab teodeistik qarashlarni aks ettiradi.

## XULOSALAR

Zardushtiylikda yakkaxudolikdan ko‘pxudolik sari o‘tish, diniy an'analar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar va boshqa madaniyatlar bilan aloqalar tufayli murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Avestoning qayta tiklanishi va uning tarkibidagi nasklar zardushtiylikning teologik muvozanatini belgilash va ko‘pxudolikni ommalashtirishga olib keldi. Zardushtning yagona xudo – Ahura Mazdaga sig‘inishni targ‘ib qilish jarayonida, jamiyatning ko‘pxudolikni saqlab qolishga bo‘lgan tendensiyasi muhim rol o‘ynadi.

Sosoniylar imperiyasi davrida mafkurani mustahkamlash uchun Avesto matnlarining qayta tahrirlanishi va yangi ma’budlar qo‘shilishi zardushtiylikning amaliy diniy ehtiyojlarga javob berishiga yordam berdi. Shu bilan birga, Avesto matnlari, uning teologik qarashlaridagi o‘zgarishlar zardushtiylikni boshqa dinlar va falsafiy ta’limotlar bilan kurashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Zardushtiylikning islom bilan to‘qnashuvida ushbu din teologiyasining tarixiy jarayonlarda o‘zgarib borishi va yakkaxudolikka zid ravishda ko‘pxudolikning namoyon bo‘lishi islom dinining ustuvorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan.

Bir so‘z bilan aytganda, zardushtiylikning taraqqiyoti va uning ko‘pxudolikning turli shakllarini qabul qilishi o‘sha davr diniy, siyosiy va ijtimoiy kontekstning murakkabligi fonida yuz bergan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

1. Beruniy, Abu Rayhon. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. 2020. Toshkent: “O‘zbekiston”
2. Boyce, Mary *Textual Sources for the Study of Zoroastrianism*, 1984. Manchester UP.
3. Dani, A.H. History of civilizations of Central Asia. 1996. Quétigny (France): Unesco.
4. Gharib, B. *Sogdian Dictionary (Sogdian-Persian-English)*. 1995. Tehran: Farhang Publications.
5. Grishman, Roman. Iran from the Earliest Times to the Islamic Period. Harmondsworth 1954. Paris: Éditions Klincksieck.
6. Hintze A. “Zarathusrta’s Time and Homeland – Linguistics Perspectives”. – Stausberg: John Wiley&Sons, 2015. – 38 p.
7. Is’hoqov M.M. Avesta: Zardusht “goh”lari (ma’no o‘zgartmalari va germenevtik talqinlari). – T.: O‘zMK nashriyoti, 2022. – 306 b
8. Kreyenbroek, Philip G. "Early Zoroastrianism and Orality". *Oral Tradition among Religious Communities in the Iranian-Speaking World*. Cambridge: Harvard University. (August 2022).

9. Sa'dullayev Sh & Abdurahmanova M. "QADIMGI SO‘G‘D VA SANSKRIT TILLARINING LEKSIK JIHATDAN YAQINLIK XUSUSIYATLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.5 (2021): 907-912.
10. Skjaervø, P. Oktor. "Old Iranian". In Windfuhr, Gernot (ed.). *The Iranian Languages*. Routledge. (2009) [ISBN 9780203641736](#).
11. Стеблин-Каменский И.М. Гаты Заратуштры. Перевод с авестийского, вступительные статьи, комментарии и приложения И.М. Стеблин-Каменского. Ст-Петербург: - 2009. с. 156.
12. Sims-Williams, N. *Bactrian documents (from Northern Afghanistan) I Legal and economic documents*, 2000. Oxford: Oxford University Press.